



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№8(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 52 sahifa,
24-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Oliy badiiy-pedagogik ta'limda an'anaviy ustoz-shogird an'anasi va innovatsion klaster yondashuvi integratsiyasining metodologik asoslari	10
Sultonov Xaytboy Eraliyevich	
Ta'lim klasteri sharoitida bo'lajak fizika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi	14
Xudoyberdiyeva Yulduz Xayrullo qizi	
Ta'lim jarayonida raqamli platformalar va dasturiy ta'minotdan foydalanish pedagogik muammo sifatida....	19
Tengelbayeva Dinora Muratovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini ekologik ta'lim va tarbiyalashning muammo va yechimlari.....	25
Abduraxmonova Muqaddas Oblokulovna	
Axborotlashgan ta'lim muhitida telematika texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari va ularning talaba shaxsini rivojlanishidagi o'rni.....	30
Botiraliyev Dildorbek Muzaffar o'g'li	
Mehnat migratsiyasi fenomeni va oila dialektikasining pedagogik aspektlari: translokallik sharoitida farzand tarbiyasi va "intelektual transfer" mediatsiyasi.....	34
K. B. Numanov	
Maktab rahbarlarini karyera pog'onalari asosida tayyorlash tizimini takomillashtirishning ilmiy-amaliy asoslari	38
Ismailov Abduvali Abdumalikovich	
CEFR B1 mezonlari asosida 10 va 11-sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishda ijodiy topshiriqlarni loyihalash metodikasi.....	45
Ergasheva Feruza Davlatali qizi	
Talabalarda raqamli toliqish darajasi va unga ta'sir etuvchi omillarning tahlili	48
Xamdanova Muazzamxon Xabibullo qizi	

MAKTAB RAHBARLARINI KARYERA POG'ONALARI ASOSIDA TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-AMALIY ASOSLARI

Ismailov Abduvali Abdumalikovich

A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti rektori,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqolada bilimlar iqtisodiyoti va globallashuv sharoitida maktab rahbarlarini karyera pog'onalari asosida tayyorlash tizimini takomillashtirishning ilmiy-amaliy asoslari yoritilgan. Tadqiqotda Singapur, Janubiy Koreya va Yaponiya ta'lim tizimlarida maktab direktorlarini tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash hamda ularning kasbiy-karyeraviy rivojlanishini ta'minlash mexanizmlari qiyosiy tahlil qilingan. Natijada rahbar kadrlarni saralashning meritokratik tamoyillari, kompetensiyaga asoslangan uzluksiz kasbiy rivojlanish modeli va ta'lim liderligini rivojlantirishga qaratilgan dasturlarning samaradorligi asoslab berilgan. Shuningdek, ushbu ilg'or tajribalarni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish hamda maktab direktorlarining boshqaruv kompetensiyalari, strategik tafakkuri va liderlik salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim menejmenti, maktab rahbari, karyera pog'onasi, boshqaruv kompetensiyasi, menejerlik sertifikati, professional rivojlanish, rahbar kadrlar zaxirasi, meritokratiya, dual ta'lim, ijtimoiy-psixologik portret, boshqaruv staji, professional saralash.

Abstract: This article examines the scientific and practical foundations for improving the system of training school leaders based on career stages in the context of the knowledge economy and globalization. The study provides a comparative analysis of the mechanisms for selecting, training, retraining, and ensuring the professional and career development of school principals in the education systems of Singapore, South Korea, and Japan. As a result, the effectiveness of meritocratic principles for selecting managerial personnel, a competency-based model of continuous professional development, and programs aimed at developing educational leadership is substantiated. In addition, scientific and practical proposals and recommendations have been developed to adapt these advanced practices to the national education system and to enhance school principals' managerial competencies, strategic thinking, and leadership potential.

Key words: educational management, school leader, career stage, managerial competence, management certificate, professional development, leadership talent pool, meritocracy, dual education, socio-psychological profile, management experience, professional selection.

Аннотация: В данной статье освещаются научно-практические основы совершенствования системы подготовки руководителей школ на основе карьерных ступеней в условиях экономики знаний и глобализации. В исследовании проведён сравнительный анализ механизмов отбора, подготовки, переподготовки и обеспечения профессионально-карьерного развития директоров школ в системах образования Сингапура, Южной Кореи и Японии. В результате обоснована эффективность меритократических принципов отбора руководящих кадров, модели непрерывного профессионального развития на основе компетентностного подхода и программ, направленных на развитие образовательного лидерства. Кроме того, разработаны научно-практические предложения и рекомендации по адаптации данного передового опыта к национальной системе образования, а также по развитию управленческих компетенций, стратегического мышления и лидерского потенциала директоров школ.

Ключевые слова: управление образованием, руководитель школы, карьерная ступень, управленческая компетентность, сертификат менеджера, профессиональное развитие, резерв руководящих кадров, меритократия, дуальное образование, социально-психологический портрет, управленческий стаж, профессиональный отбор.

KIRISH

XXI asrda bilim iqtisodiyotining ustuvor ahamiyat kasb etishi va globallashuv jarayonlarining jadallashuvi uzluksiz ta'lim tizimini zamon talablariga moslashtirish vazifasini strategik darajaga ko'tarmoqda. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini yuksaltirish, o'quvchilarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish



hamda jamiyat uchun raqobatbardosh shaxslarni tarbiyalash bevosita maktab rahbarining boshqaruv mahorati va yetakchilik kompetensiyasiga bog'liq.

Respublikamiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar o'z mohiyatiga ko'ra, avvalo, ta'lim sifatini oshirishni maqsad qilgan bo'lib, ushbu islohotlarning bosh subyekti sifatida maktab direktori ko'rilmogda. Zero, o'quv-tarbiya jarayonining samarali tashkil etilishi, inson resurslaridan unumli foydalanish, moliyaviy-huquqiy masalalarni hal etish va raqamli savodxonlikni yuksaltirish – ularning barchasi rahbarning kasbiy tayyorgarligi va strategik tafakkuri bilan bevosita bog'liq.

Shundan kelib chiqib, maktab rahbarlarini ilmiy asoslangan, bosqichma-bosqich va natijaga yo'naltirilgan tizim asosida tayyorlash masalasi nafaqat pedagogik, balki davlat boshqaruvi nuqtai nazaridan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda maktab rahbarlarini tayyorlash va ularning karyera rivojlanishini tizimli tashkil etish masalasi xorijiy pedagogika fanida keng o'rganilgan. Respublikamizda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish, ularni milliy ta'lim tizimi xususiyatlariga moslashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Shu nuqtai nazardan, mazkur bo'limda maktab rahbarlarini tayyorlash va ularning kasbiy rivojlanishini tashkil etish bo'yicha Singapur, Janubiy Koreya hamda Yaponiya tajribalari qiyosiy tahlil qilindi.

Singapurda oddiy o'qituvchidan maktab direktori lavozimiga ko'tarilish o'rtacha 15–20 yillik bosqichma-bosqich professional rivojlanishni talab etadi. Nomzodlar tasodifiy tanlanmaydi, ular quyidagi 5 ta aniq bosqichdan bosqichma-bosqich o'tishadi.^[18]

1-jadval: Singapurda maktab rahbarlarining kasbiy-karyeraviy rivojlanish bosqichlari

1-bosqich	Pedagogik professionalizm (3–5 yil)	Yuqori o'qitish ko'rsatkichlari asosida "Yetakchilik yo'nalishi" dasturiga jalb etiladi
2-bosqich	Quyi va o'rta bo'g'in boshqaruvi (5–7 yil)	Metodik birlashma rahbari, so'ngra bo'lim boshlig'i lavozimlarida ishlaydi
3-bosqich	Direktor o'rinbosari (3–5 yil)	Byudjet, kadrlar siyosati va strategik rejalashtirishni amalda boshqaradi
4-bosqich	LEP (Leaders in Education Programme) dasturi (6 oy)	Milliy ta'lim institutida jahon standartlarida o'qitiladi; innovatsion loyihani himoya qiladi
5-bosqich	Rasmiy tayinlov va rotatsiya	Ta'lim vazirligi yuqori rahbariyati tomonidan saralanadi

Manba: Tahlillar natijalari asosida muallif ishlanmasi.

Jadvaldan ko'rinadiki, Singapurda maktab direktorlarini tayyorlash besh bosqichli karyera modeli asosida amalga oshiriladi. Ushbu model pedagogik tajriba, boshqaruv kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish, maxsus liderlik dasturida tayyorgarlik ko'rish hamda yakuniy saralash jarayonlarini o'z ichiga oladi. Mazkur yondashuv rahbar kadrlarni tanlashda professional kompetensiya, amaliy tajriba va liderlik salohiyatini asosiy mezon sifatida belgilaydi.

Janubiy Koreyada maktab direktori bo'lish tizimi Singapur kabi meritokratik, biroq o'ziga xos "Ball to'plash" (Promotion Point System) va milliy sertifikatlash modeliga asoslangan. Koreya maktablarida direktorlar ko'p yillik o'qituvchilik tajribasiga ega bo'lgan va juda qattiq raqobatdan o'tgan professional pedagoglar ichidan tanlab olinadi. Nomzodlar direktorlik darajasiga yetishi uchun quyidagi tizimli bosqichlardan o'tadi.^[19]

2-jadval: Janubiy Koreyada maktab rahbarlarining kasbiy-karyeraviy rivojlanish bosqichlari

1-bosqich	1-darajali o'qituvchi sertifikatini olish (3-5 yil)	Kamida 3 yillik to'liq sinf tajribasidan so'ng, u davlat tomonidan tashkil etilgan maxsus malaka oshirish kursiga yuboriladi.
2-bosqich	Ball yig'ish va yetakchilik davri (15-20 yil)	Nomzod maktabda Kafedra mudiri (Bojik-gyosa) lavozimini egallab, boshqaruvni o'rganadi
3-bosqich	Direktor o'rinbosari litsenziyasi va amaliyoti (3-5 yil)	Nomzod davlat tomonidan tashkil etilgan intensiv tayyorlov kursida o'qiydi va Direktor o'rinbosari litsenziyasini oladi.

1 NATIONAL INSTITUTE FOR SCHOOL LEADERSHIP® 2019. <https://documents.ncsl.org/wwwncsl/Education/Study-Group/NISLSingapore%27sCareerLadderSystem.pdf>

2 Masayuki AKUTAGAWA, Criteria for the Bestowal of School Principal Licenses Under the Former Board of Education Act: Standards Setting and Certification Process Administration through Detailed Enforcement Regulations and Liaison Councils. <https://www.jeas.jp/jeas/wp-content/uploads/2024/02/Akutagawa2022JEAS48.pdf>



4-bosqich	Direktorlik sertifikati va tayinlov (Gyojang)	Kamida 3 yil direktor o'rinbosari bo'lib ishlagan va o'zini ko'rsatgan nomzodlar Ta'lim vazirligining yakuniy "Maktab boshqaruvi va strategik yetakchilik" (Principal Qualification Program) kursiga yuboriladi.
Muqobil yo'l	Ochiq tanlov tizimi (Open Recruitment)	Tajribali o'qituvchilar yoki ta'lim ekspertlari "ball tizimi"da qatnashmasdan, muayyan maktablar e'lon qilgan ochiq tanlovlar (Gongmo) orqali to'g'ridan-to'g'ri direktorlikka hujjat topshirishlari mumkin.

Manba: Tahlillar natijalari asosida muallif ishlarnasi.

Janubiy Koreya tajribasi maktab rahbarlarini tayyorlash va lavozimga tayinlash jarayoni uzoq muddatli kasbiy rivojlanish, majburiy malaka oshirish, litsenziyalash hamda sertifikatlash mexanizmlariga asoslanishini ko'rsatadi. Tizimda boshqaruv kompetensiyalarini bosqichma-bosqich shakllantirish, nomzodlarni qat'iy saralash va ochiq tanlov amaliyotining qo'llanilishi rahbar kadrlar sifatini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi.

Ushbu tajriba umumta'lim muassasalari rahbarlarini tayyorlash va ularning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish tizimini takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Yaponiyada maktab direktori (Kōchō) bo'lish tizimi ham qat'iy tartibga solingan va mahalliy ta'lim kengashlari tomonidan markazlashgan holda boshqariladi. Yaponiya ta'lim, madaniyat, sport, fan va texnologiyalar vazirligi standartlariga muvofiq, nomzodlar quyidagi bosqichma-bosqich jarayonlardan o'tishadi^{[1][10]}:

3-jadval: Yaponiya maktab rahbarlarining kasbiy-karyeraviy rivojlanish bosqichlari

1-bosqich	Tajriba to'plash va yetakchi o'qituvchi (10–12 yil)	10 yillik o'qituvchilik tajdan so'ng, u maktab ma'muriyati tomonidan "Yetakchi o'qituvchi" (Shidō-kyōyu) yoki fan koordinatori lavozimiga tavsiya etiladi.
2-bosqich	Kafedra mudiri (5–7 yil)	Dars jadvallari tuzish, imtihonlarni tashkil qilish, maktab tadbirlarini rejalashtirish va Ta'lim kengashi bilan aloqalarni muvofiqlashtirish uchun mas'ul bo'ladi.
3-bosqich	Direktor o'rinbosari (3–5 yil)	Imtihonlar insho yozish, qonunchilikdan testlar va chuqur psixologik suhbatdan iborat.
4-bosqich	Direktorlik imtihoni (Kōchō) (1-2 yil)	Ta'lim markazida strategik menejment, inqirozlarni boshqarish va ta'lim huquqi bo'yicha maxsus kurslarda o'qitiladi.

Manba: Tahlillar natijalari asosida muallif ishlarnasi.

Yaponiya tajribasi maktab rahbarlarini tayyorlash jarayoni uzluksiz kasbiy rivojlanish, amaliy boshqaruv tajribasi va maxsus malaka tayyorgarligi tamoyillariga asoslanishini ko'rsatadi. Rahbarlik lavozimiga nomzodlar turli boshqaruv bosqichlaridan izchil o'tishi, strategik menejment va ta'limni boshqarish bo'yicha maxsus tayyorgarlikdan o'tishi natijasida ularning boshqaruv kompetensiyalari tizimli ravishda rivojlantiriladi.

Ushbu model umumta'lim muassasalari rahbar kadrlarini tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuv, meritokratiya va uzluksiz kasbiy rivojlanish tamoyillarini samarali uyg'unlashtirishi bilan e'tiborga loyiq bo'lib, milliy ta'lim tizimida rahbar kadrlarni tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirish uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Yuqorida tahlil qilingan Singapur, Janubiy Koreya va Yaponiya tajribalari shuni ko'rsatadiki, mazkur davlatlarda maktab rahbarlarini tayyorlash va lavozimga tayinlash tizimi uzluksiz kasbiy rivojlanish, kompetensiyaviy yondashuv, ko'p bosqichli saralash hamda meritokratiya tamoyillari asosida tashkil etilgan. Ushbu mamlakatlarda rahbarlik lavozimiga nomzodlar pedagogik faoliyatdagi yutuqlari, boshqaruv tajribasi, maxsus tayyorlov dasturlarida ishtiroki va kasbiy kompetensiyalari asosida bosqichma-bosqich saralanadi. Natijada ta'lim muassasalariga zamonaviy boshqaruv kompetensiyalariga ega, strategik fikrlaydigan va ta'lim sifatini samarali boshqara oladigan rahbar kadrlar shakllantiriladi.

Mazkur ilg'or tajribalar tahlili Respublikamiz umumta'lim tizimida maktab rahbarlarini tayyorlash va ularning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini yanada yaqqol namoyon etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

So'nggi yillarda ushbu yo'nalishda qator normativ-huquqiy va tashkiliy islohotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, amaldagi tizim faoliyatini ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilish ayrim tizimli muammolar va takomillashtirishni talab etuvchi jihatlar mavjudligini ko'rsatmoqda.



Xususan, ikki yillik amaliy tajriba va chuqur pedagogik tahlillar amaldagi tizimni yanada takomillashtirishni taqozo etuvchi ayrim masalalarni ham o'rtaga chiqarmoqda. Hozirgi tartibga ko'ra, o'quv kurslariga qabul qilish jarayonida hech qanday dastlabki kirish sinovlarining mavjud emasligi sababli talabgorlarning boshlang'ich bilim va boshqaruv salohiyatini oldindan saralash imkoni bo'lmayapti. Buning oqibatida o'qishga kelayotgan nomzodlarning qariyb 53 foizi davlat tili qoidalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va boshqaruv asoslariga oid fundamental dasturlarni o'zlashtirishda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Shuningdek, minimal talab sifatida faqatgina 5 yillik pedagogik ish staji va oliy ma'lumot diplomining belgilanganligi rahbarlikka chinakam iqtidorli va yetakchilik xususiyatiga ega bo'lgan kadrlarni ajratib olish uchun yetarli mezon sifatida xizmat qilmaypti. Mazkur holat maktab rahbarlarini tayyorlash tizimiga kompetensiyaga asoslangan saralash, diagnostika va uzluksiz kasbiy rivojlantirish mexanizmlarini joriy etish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Amaldagi tizim tahlili yana bir muhim metodik muammoni namoyon etadi. Xususan, boshqaruv faoliyati bo'yicha amaliy tajribaga ega bo'lmagan yosh pedagoglar hamda ko'p yillik rahbarlik tajribasiga ega amaldagi maktab direktorlarining bir xil o'quv dasturi, yagona o'quv yuklamasi va umumiy baholash mezonlari asosida tayyorlanishi kasbiy rivojlanishning individuallashtirilgan va differensial yondashuv tamoyillariga to'liq mos kelmaydi. Bunday yondashuv tinglovchilarning boshlang'ich kompetensiyalari, kasbiy ehtiyojlari va boshqaruv tajribasidagi tafovutlarni yetarli darajada hisobga olish imkonini cheklaydi.


Natijada o'quv jarayonining mazmuni ayrim tinglovchilar uchun murakkablik darajasi jihatidan yetarli bo'lmasa, boshqalari uchun esa mavjud bilim va tajribani takrorlash bilan cheklanib qolishi mumkin. Bu esa malaka oshirish jarayonining samaradorligini pasaytirishi, boshqaruv kompetensiyalarini maqsadli rivojlantirish imkoniyatlarini cheklashi hamda ta'lim natijalarining differensial ehtiyojlarga mosligini ta'minlashda muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, rivojlangan ta'lim tizimlarida maktab rahbarlarini tayyorlash ularning kasbiy tayyorgarligi, boshqaruv tajribasi, kompetensiyalar darajasi va karyera bosqichlaridan kelib chiqib, tabaqalashtirilgan dasturlar asosida tashkil etiladi. Bunday yondashuv rahbar kadrlarning individual rivojlanish trayektoriyasini shakllantirish, ularning boshqaruv salohiyatini izchil rivojlantirish hamda ta'lim tashkilotlari faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, Respublikamiz ta'lim tizimida ham maktab rahbarlarini tayyorlash va ularning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda. Bunda rahbar kadrlarni tayyorlash jarayonini real kasbiy-karyeraviy bosqichlar, kompetensiyaviy talablar va differensial ta'lim tamoyillari asosida tashkil etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv boshqaruv kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish, rahbarlik faoliyatiga tayyorlik darajasini oshirish hamda ta'lim sifatini boshqarishning samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqorida aniqlangan tizimli muammolarni bartaraf etish hamda ta'lim menejmenti sifatini oshirish maqsadida maktab rahbarlarini tayyorlashning yangi konseptual modeli taklif etilmoqda (1-rasm). Mazkur model rahbar kadrlarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish jarayonini uzluksizlik, izchillik hamda kompetensiyaviy yondashuv tamoyillari asosida tashkil etishni nazarda tutadi.



1-rasm: Maktab rahbarlarini karyera pog'onalari asosida tayyorlash va o'sish modeli³

Taklif etilayotgan modelga ko'ra, maktab rahbarlarini tayyorlash tizimi o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan uch bosqichli kasbiy-karyeraviy rivojlanish modeli asosida amalga oshiriladi. Ushbu yondashuv rahbarlik faoliyati uchun zarur bo'lgan boshqaruv kompetensiyalarini pedagogning kasbiy faoliyati davomida bosqichma-bosqich shakllantirish va takomillashtirishga xizmat qiladi. Har bir bosqichda nomzodlarning kasbiy tajribasi, boshqaruv salohiyati, liderlik kompetensiyalari hamda strategik fikrlash qobiliyati belgilangan mezonlar asosida baholanadi va keyingi bosqichga o'tish uchun zarur kompetensiyalar izchil rivojlantiriladi (1-rasm).

Mazkur model har bir rahbar xodimning o'z faoliyatini dastlab quyi bo'g'indan boshlab, bosqichma-bosqich tajriba orttirib, yuqori boshqaruv korpusiga ko'tarilib borishini ta'minlaydi va ta'limda xizmat pog'onalari bo'yicha o'sishning shaffof trayektoriyasini yaratadi.

- **I bosqich (Maktab direktori o'rinbosarlari uchun):** Hududiy pedagogik mahorat markazlarida 300 soatlik, nazariya va amaliyotning uzviyligini ta'minlovchi dual ta'lim asosidagi maxsus o'quv kurslari tashkil etiladi. Ushbu bosqichga qabul qilinish uchun nomzoddan kamida 4 yillik muvaffaqiyatli pedagogik ish staji talab etiladi.
- **II bosqich (Maktab direktorlari uchun):** A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutida chuqurlashtirilgan 300 soatlik dasturlar asosida o'qitiladi. Mazkur bosqichga faqatgina kamida 5 yillik pedagogik stajga hamda shundan kamida 2 yillik direktor o'rinbosari lavozimidagi natijador rahbarlik tajribasiga ega bo'lgan sertifikatli kadrlar qabul qilinadi.
- **III bosqich (Tuman/shahar maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshliqlari uchun):** Strategik boshqaruv, makromenejment va hududiy ta'lim tizimini rivojlantirish dasturlarini o'z ichiga olgan 100 soatlik maxsus kurs tashkil etiladi. Ushbu cho'qqiga da'vogarlik qilish uchun shaxsdan 5 yillik umumiy pedagogik staj bilan bir qatorda, kamida 3 yillik bevosita maktab direktori lavozimidagi samarali faoliyat va yuqori boshqaruv ko'rsatkichlari talab qilinadi.

Taklif etilayotgan tizimning yana bir o'ziga xos va inqilobiy jihati shundaki, unda rahbar kadrlarning faqatgina imtihon topshirish qobiliyati emas, balki ularning ish joyidagi haqiqiy nufuzi va psixologik tayyorgarligi ham jiddiy nazoratga olinadi. O'qishga qabul qilishdan oldin talabgorlarning mavjud bilim darajasini aniqlash maqsadida majburiy saralash (kirish) imtihonlari yo'lga qo'yiladi. Shu bilan birga, nomzod faoliyat ko'rsatayotgan maktab jamoasining fikri, uning xodimlar bilan muloqot qilish madaniyati hamda liderlik xususiyatlarini o'rganish maqsadida jamoaviy baholash tizimi joriy etiladi. Bu jarayon shaxsning har tomonlama mukammal ijtimoiy-psixologik portretini shakllantirishga va jamoa tomonidan hurmat qilinadigan rahbarlarni kashf etishga xizmat qiladi.

Ushbu qat'iy va professional saralash filtrlari fonida o'z ustida ishlab, professional darajaga ko'tarilgan rahbar kadrlarni moddiy rag'batlantirish tizimi ham mutanosib ravishda tubdan oshiriladi. Yangi konsepsiyaga ko'ra, menejerlik sertifikatini muvaffaqiyatli qo'lga kiritgan direktor o'rinbosarlariga 50 foiz, maktab direktorlariga 100 foiz, tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshliqlariga esa 200 foiz miqdorida lavozim maoshiga nisbatan har oylik ustama haq belgilanishi ko'zda tutilgan. Bu chora sohada uzoq yillar davomida saqlanib qolgan eng bilimli kadrlarning moddiy yetishmovchilik sababli boshqa sohalarga chiqib ketish muammosini ijobiy hal etib, sohaning moliyaviy jozibadorligini misli ko'rilmagan darajada yuksaltiradi.

Maktab rahbarlarini karyera pog'onalari asosida bosqichma-bosqich tayyorlash, qayta tayyorlash va tayinlash tizimining hayotga tatbiq etilishi mamlakatimiz ta'lim menejmentida yangi davrni boshlab beradi. Dual ta'lim shaklining joriy etilishi natijasida bo'lajak rahbarlar faqatgina quruq akademik nazariyalarni yodlamasdan, balki olingan zamonaviy bilimlarni bevosita o'z maktablarida amaliyotda qo'llash, tajriba o'tkazish va real muammolarga optimal innovatsion yechimlar topish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shaffof karyera zanjiri esa har bir yosh pedagogga o'z kelajagini aniq rejalashtirish va halol mehnat evaziga yuqori lavozimlarga ko'tarilish imkonini taqdim etadi.

Taklif etilayotgan model doirasida rahbarlikka tasodifiy shaxslar kelib qolishining oldini olish uchun quyidagi professional filtrlar va mexanizmlar joriy etiladi:

1. **Kirish imtihonlari va ijtimoiy-psixologik portret:** Kursga qabul qilinishdan oldin nomzodlarning mavjud bilim, ko'nikma va rahbarlik layoqatini aniqlash maqsadida majburiy saralash imtihonlari o'tkaziladi hamda ularning psixologik portreti shakllantiriladi.
2. **Jamoaviy baholash:** Nomzod faoliyat ko'rsatayotgan maktab jamoasi, o'qituvchilar va ota-onalarning fikri hamda jamoaviy baholash prinsiplari joriy qilinadi. Bu jarayon subyektivlikni kamaytirishga va Direktorlar kengashi suhbatlarining shaffofligini ta'minlashga xizmat qiladi.
3. **KPI asosida rag'batlantirish va masofaviy ta'lim:** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi "Maktabgacha va maktab ta'limi sohasida boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishning



qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-51-son⁴ Farmoni talablariga muvofiq, direktorlarning bazaviy tarif stavkalari 20 foizga oshirildi hamda 2026-yil 1-yanvardan boshlab faoliyat samaradorligi ko'rsatkichlari (KPI) natijalariga ko'ra qo'shimcha 20 foizgacha ustamalar belgilanishi yo'lga qo'yildi.

Mazkur model doirasida menejerlik sertifikatiga ega bo'lgan o'rinbosarlarga 50 foiz, direktorlarga 100 foiz, tuman bo'limi mudirlariga esa 200 foiz ustama belgilanishi taklif etilmoqda. Shu bilan birga, jarayonlarni optimallashtirish va chekka hududlardagi kadrlar taqchilligini bartaraf etish uchun menejerlik kurslarining onlayn va masofaviy shakllari ham joriy etiladi.

Maktab rahbarlarini karyera pog'onalariga muvofiq bosqichma-bosqich tayyorlash va tayinlash tizimining hayotga tatbiq etilishi mamlakatimiz ta'lim menejmentida mutlaqo yangi progressiv davrni boshlab beradi. Dual ta'lim shaklining kengaytirilishi va raqamli monitoring tizimlarining joriy etilishi natijasida bo'lajak rahbarlar faqat quruq akademik nazariyalarni yodlamasdan, balki olingan zamonaviy strategiyalarni bevosita o'z maktablarida amaliyotda qo'llash va real muammolarga optimal innovatsion yechimlar topish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shaffof karyera zanjiri esa har bir yosh pedagogga o'z kelajagini aniq rejalashtirish va halol mehnat hamda uzluksiz malaka oshirish evaziga yuqori lavozimlarga ko'tarilish imkonini taqdim etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, rahbar va pedagog kadrlar malakasini oshirish metodologiyasini yangi bosqichga ko'targan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-231-son⁵ qarori, umumiy o'rta ta'lim muassasalari rahbar kadrlarini tayyorlash, ularning kasbiy, strategik va moliyaviy-huquqiy boshqaruv kompetensiyalarini oshirishda menejerlik o'quv kurslarining tutgan o'rni hamda institutsional asoslari tizimli tahlil qilinadi.

Tadqiqot doirasida sohadagi islohotlarning fundamental huquqiy poydevori hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-dekabrda "Davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik o'quv kurslarida o'qitish va ularga menejerlik sertifikatini berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 681-son qarori hamda malaka oshirish jarayonlarini to'liq raqamlashtirish va diagnostika qilish mexanizmlarini belgilab bergan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-dekabrda "Maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 867-son⁶ qarori asosida boshlangan islohotlarni ushbu tizimli karyera modeli yordamida yanada takomillashtirish ta'lim muassasalarida boshqaruv sifatini tubdan yaxshilashning bosh garovidir.

Baholash jarayonlarining ijodiy fikrlash, tahliliy qobiliyat va keng dunyoqarash mezonlariga tayanishi yurtimizda Uchinchi Renessans poydevorini mustahkamlaydigan mutlaqo yangi dunyoqarashga ega professional rahbar kadrlar korpusini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son⁷ Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrda "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son⁸ Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrda "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohaslarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son⁹ Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-mayda "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-79-son¹⁰ Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martda "Maktabgacha va maktab ta'limi sohasida boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-51-son¹¹ Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrda "Maktabgacha va maktab ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3931-son¹² qarori. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi "Pedagog kadrlarning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-231-son¹³ qarori.

4 <https://lex.uz/uz/docs/-7438953>

5 <https://lex.uz/uz/docs/-6981085>

6 <https://lex.uz/uz/docs/-7271575>

7 <https://lex.uz/ru/docs/-4312785>

8 <https://lex.uz/uz/docs/-3893445>

9 <https://lex.uz/uz/docs/-3893445>

10 <https://lex.uz/docs/-6476175>

11 <https://lex.uz/uz/docs/-7438953>

12 <https://lex.uz/docs/-3893416>

13 <https://lex.uz/uz/docs/-6981085>



7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-dekabrda "Maktabgacha va maktab ta'limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 867-son¹⁴ qarori.
8. National Institute for School Leadership®. "Singapore's Career Ladder System". 2019.
9. Masayuki AKUTAGAWA. Criteria for the Bestowal of School Principal Licenses Under the Former Board of Education Act: Standards Setting and Certification Process Administration through Detailed Enforcement Regulations and Liaison Councils.
10. Ministry of Education, Culture, Sports, Science and Technology – Japan. Special Feature I: Approach to Development, Recruitment, and Training of Teachers Who Will Be Responsible for "Japanese-Style School Education in the Reiwa Era".
11. A. Ismailov va b. Ta'limda liderlik va o'zgarishlarni boshqarish. Umumiy o'rta ta'lim maktab direktorlari va o'qituvchilari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: "A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti bosmaxonasi", 2024. – 320 b.
12. A. Shleyxer. Jahon miqyosidagi ta'lim. XXI asr maktab tizimini qanday barpo etmoq kerak? / So'z boshi: Sh. Shermatov, H. Umarova; umumiy tahrir: D. Norboyeva; tarjimonlar: R. Axmatova, D. Norboyeva. – T.: "Zamin Nashr" nashriyoti, 2022. – 344 b.
13. E. U. Xudoyberdiyev. Maktablarda ta'limni strategik boshqarishning muammo va istiqbollari. "O'zbekiston Milliy universiteti xabarlari" ilmiy jurnali. – T., 2023. – 1/4-son. – B. 182–184.
14. A. Ismailov. Umumiy o'rta ta'lim maktablari direktorlarini kasbiy rivojlantirish masalalari. "Maktab ta'limi: muammolar, izlanishlar, yechimlar" nomli ilmiy-nazariy va o'quv-uslubiy jurnal. – T., 2025. – 5-son. – B. 5–14.
15. A. Baxramov, G. Itolmazova, O. Tursinboyev. Rahbar va pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish (CPD). O'quv qo'llanma. – Toshkent: Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, 2025. – 112 bet.
16. A. Ismailov. Maktab rahbarlarining kasbiy-karyera pog'onalarida bosqichma-bosqich rivojlanishiga qaratilgan o'quv dasturlarini joriy etish mexanizmlari. "Maktab ta'limi: muammolar, izlanishlar, yechimlar" nomli ilmiy-nazariy va o'quv-uslubiy jurnal. – T., 2026. – 2-son. – B. 5–15.
17. A. Ismailov. Rahbar kadrlarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning baholash indikatorlarini takomillashtirish. "Zamonaviy jamiyat va innovatsiyalar" ilmiy-nazariy jurnal. – Buxoro, 2026. – 5-son. – B. 213–216.

¹⁴ <https://lex.uz/uz/docs/-7271575>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.